

IJTIMOIIY NAZORAT VA TARTIB YOSHLAR IJTIMOIIY BARKAMOLLIGINI TA’MINLASHDA MUHIM ME’ZON

Djurayev Luqmon Narzullayevich

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti falsafa va milliy g‘oya kafedrasi dotsenti falsafa fanlari doktori (DSc)

Sattorov Musurmonqul Dostonovich

Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti falsafa va milliy g‘oya kafedrasi dotsenti falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ma’lumki, o‘z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta’lim va tarbiyani yuksaltirish, turkiston o‘lkasini ma’naviy hamda ma’rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan jadidlar harakati o‘lka xalqlari tarixida muhim rol o‘ynagan. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o‘lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g‘oyasini ilgari surdilar.

Kalit so‘zlar: jadid, ma’rifatparvarlik. islohat, milliy mafkura, o‘lka taqdiriga dahldorlik, ta’lim va tarbiya.

Аннотация. Известно, что джадидское движение, которое поставило своей целью не только политическую деятельность, но и повышение уровня образования и воспитания, духовно-просветительское реформирование Туркестанского края, воспитание гармонично развитого поколения, сыграло важную роль в истории народов края. Джадиды выдвинули идею объединения народов Туркестана и борьбы за национальную независимость всего края.

Ключевые слова: джадидизм, просветительство, реформы, национальная идеология, причастность к судьбе края, образование и воспитание.

Annotation. It is known that the Jadid movement, which set itself the goal of not only political activity, but also the development of education and upbringing, the spiritual and educational reform of the Turkestan region, and the upbringing of a harmoniously developed generation, played an important role in the history of the peoples of the region. The Jadids promoted the idea of uniting the peoples of Turkestan and fighting for the national independence of the entire region.

Key words: Jadid, enlightenment. Reforms, national ideology, involvement in the fate of the country, education and upbringing.

Yoshlarning ijtimoiy faolligi jamiyatning boshqa qatlamlari ijtimoiy faolligiday xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo yoshlarning jamiyatda tutgan mavqeining tiliq shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Yoshlar ijtimoiy tuzilmalarga kirish, ya’ni ijtimoiylashuv jarayonini boshdan kechiradilar.¹ Ijtimoiy faoliyatning har bir sohasida yoshlarning ijtimoiy faolligi o‘ziga xos xususiyatga ega. Shundan kelib chiqib, uni bir necha yo‘nalishlarda: iqtisodiy ta’lim, ijtimoiy himoya ma’naviy-axloqiy hayot sohalarida o‘rganish lozim. Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat’iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o‘zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi.

Ijtimoiy faollik atamasi ijtimoiy munosabatlarning muayyan tizimida insonlarning intensiv faoliyatini belgilash uchun qanday bo‘lsa, uni amalga oshirishga qobiliyatni belgilash uchun ham shunday ishlatiladi. Shunday qobiliyat bo‘la turib, ijtimoiy faollik murakkab, integral fazilat sifatida mavjud. U qandaydir alohida xususiyatni, balki hayotiy faoliyat xususiyatlarining butun majmuini ifodalaydi.

Ijtimoiy faollik murakkab jarayon bo‘lib, insonda birdaniga vujudga kelmaydi. Olib borilgan tadqiqotlar talaba shaxsida ijtimoiy faollik shakllanishi uning ushbu kasbni tanlagan davriga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi.

Yoshlar faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo‘lib uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko‘rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir. Yoshlar faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog‘liq bo‘lgan va qadriyatlarining nomoyon bo‘lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo‘lib, uning yuksak qadriyatdagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko‘rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o‘rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o‘rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

Bugun jamiyatimiz hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar va tub islohotlar jarayoni fuqarolik jamiyati institutlari deya ta’riflanadigan nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat birlashmalaridan ham ijtimoiy faollikni talab etmoqda. Xo‘sh,

¹“Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari” Ismailov Berdiyov Rashidovich O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrası 2 kurs magistriri Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021= 5.423. 254-257 b

Ijtimoiy faollik o‘zi nima? Ijtimoiy faollik deganda kishi qaysi kasbning egasi bo‘lishidan, qanday lavozimda ishlashidan qat’iy nazar, uning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga, zamondan ortda qolmaslikka bo‘lgan harakatini tushunish mumkin. Mana shu jarayonda u o‘zini shaxs va fuqaro sifatida namoyon qiladi. Bugun yurtdoshlarimizning ijtimoiy faollashayotganini ko‘rib turibmiz. Ijtimoiy tushkunlik, o‘zgarishlarga, islohotlarga loqaydlik davri o‘tdi, yurtdoshlarimizda tashabbusni, yangilikka bo‘lgan intilishlarni guvohimiz.

“Ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy faollikni kuchaytirib yubordi”, degan mazmundagi fikrlarni ham mavjud.² Lekin ijtimoiy faollik bilan ijtimoiy tarmoqlardagi faollik o‘rtasida katta farq bor. Ijtimoiy tarmoqlardan turib o‘zining subyektiv fikrlarini ulashib, kechayotgan voqea-hodisalarga faqat va faqat negativ munosabat bildirib o‘tirish, bu hali ijtimoiy faollik degani emas. Har qanday ijtimoiy hodisaga nimadir sabab bo‘ladi, nimadir turtki beradi. Ijtimoiy faollik ham o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas.

Mustaqil mamlakatimizni rivojlangan davlatlar qatorida ko‘rish har bir o‘zbekistonlikning orzusi. Lekin bu orzu kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Yurtdoshlarimiz qalbidagi ana shu istakning yanada ortib, yangi O‘zbekistonni barpo etishga bo‘lgan ishtiyoqning kuchayishiga, aytib o‘tganimiz – ijtimoiy faollikning ortishiga, shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshlab bergan shiddatli demokratik islohotlar turtki berdi. Bugun O‘zbekiston milliy tiklanishdan milliy yuksalish tomon qadam tashladi. Taraqqiyot va farovonlikka qaratilgan islohotlarning samarali amalga oshishini hamma istaydi. Sababi, bu kabi islohotlar natijasida halq farovon yashaydi. Islohotlarga, o‘zgarishlarga daxldorlik hissi shaxsni ijtimoiy faol bo‘lishga undaydi. Kelajak bugundan boshlanadi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishi, har tomonlama yetuk shaxslar bo‘lib yetishishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Ushbu maqolada nazariy jihatdan egallangan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish natijasida shakllanadigan faollik borasida fikr-mulohaza yuritishni oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Ijtimoiy faollik shaxs faoliyatining muhim tomonlaridan biridir.

U shaxsning jamiyat va jamoa ishlaridagi ishtirokida namoyon bo‘ladi, ma’lum darajada siyosiy va axloqiy o‘zlikni anglashga asoslanadi. Ijtimoiy faollikni tarbiyalash – bu nafaqat jamoat ishlarida ishtirok etish darajasining oshishi, balki yoshlarning axloqiy yo‘nalganligini aniqlovchi motivlarning shakllanishi hamdir. Ijtimoiy faollik

²“Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari” Ismailov Berdiyov Rashidovich O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrası 2 kurs magistriri Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021= 5.423. 254-257 b

tushunchasi fuqarolik jamiyati tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Fuqaroviylik va fuqaroviy ongni o‘rganishdan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini barpo etishda fuqaroviy faollikni o‘rganishdan iborat. Zero fuqarolik jamiyati nafaqat fuqaroviylik xususiyatlariga ega ongli fuqarolar vositasida, balki faol bo‘lgan fuqarolar bilan barpo etiladi. Ana shu faollikni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga egadir. Zero ular fuqarolik jamiyatini barpo etishning umumiy va xususiy qonuniyatlarini anglash imkonini beradi.

Fuqaroviy faollikni ijtimoiy-siyosiy va mehnat faoliyatiga ijodiy yondashuv sifatida baholash mumkin. Aynan insonning fuqaroviy faolligi shaxsning to‘laqonli rivojlanishiga, undagi imkoniyatlarning to‘liq namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi. Fuqarolik pozitsiyasi hamda fuqaroviy faollikka ega bo‘lish jamiyatda ro‘y berayotgan barcha voqea-hodisalarni, ularning oqibatlarini va mavjud muammolarning yechimini chuqur anglashni taqozo etadi. Demak, biz yoshlarimizda fuqaroviy ongni shakllantirishimiz kerak. Fuqaroviy ong jamiyatni birlashtirishga xizmat qiladi, umumiy manfaatlar yo‘lida fuqarolar o‘rtasida kelishuv bo‘lishiga xizmat qiladi. Jamiyatda ro‘y beradigan turli ijtimoiy madaniy omillar ta’sirida fuqaroviy ong o‘zgarib boradi va fuqaroviylik to‘g‘risidagi g‘oyalar taraqqiyotida o‘z aksini topadi.

Yoshlarni fuqaroviy ongi qanchalik rivojlangan bo‘lsa ular jamiyatdagi ijtimoiy faolligi shunchalik faollashadi. Aynan fuqaroviy faollikning o‘zi bir necha jihatlar bilan ajralib turadi;

- faol fuqaro guruhiga mansub kishilar asosan siyosiy va iqtisodiy tizim to‘g‘risida bilim olishga tayyor bo‘lgan kishilardan iborat;
- faol fuqarolarda o‘z haq-huquqlarini faol amalga oshirish uchun bilim va qobiliyat mavjud;
- faol fuqarolarda ana shu bilimlarni joriy qilish uchun ko‘nikmalar mavjud bo‘ladi.

Muayyan faoliyatni doimiy ravishda tashkil etish shaxsda ma’lum ko‘nikmalarni hosil qiladi. Ko‘nikmalar esa faoliyatni izchil davom ettirish jarayonida malakalarga aylanadi.³ Shakllangan malaka esa shaxs tomonidan faoliyatning tezkor, sifatli, samarali kechishini ta’minlaydi. Faoliyatda samaradorlikka erishish insoniyatni qay darajada qiziqtirib kelgan bo‘lsa, uni tashkil etayotgan shaxsning kasbiy malakaga ega

³ “Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari” Ismailov Berdiyov Rashidovich O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrası 2 kurs magistiri Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021= 5.423. 254-257 b

bo‘lishi ham shunday dolzarblik kasb etgan. Kasbiy malakaga ega bo‘lish ijtimoiy, shu bilan birga shaxsiy ahamiyatga egadir.

Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish masalasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga o‘ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning tashkiliy-huquqiy asoslari tizimli ravishda takomillashib bormoqda.⁴

Taraqqiyotni maqsad qilgan har bir davlatda yoshlarga oid davlat siyosati eng muhim yo‘nalishlardan sanaladi. Mamlakat rivoji va ravnaqi, kelajakdagi nufuzini ta‘minlashda aynan yoshlar siyosati katta ahamiyatga ega. Yoshlarga oid davlat siyosati o‘z mohiyati bilan davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish yo‘lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimidir. Yoshlarga oid davlat siyosati muhim siyosiy yo‘nalish sifatida izchil jarayon bo‘lib, u yoshlar mavqei va hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikning bosh xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarga oid davlat siyosati siyosiy yo‘nalish sifatida O‘zbekistonning Mustaqillik yillari tarixida yuz bergan hamda davlat tomonidan maqsadli amalga oshirilgan yoshlarga oid barcha ijtimoiy o‘zgarishlar, tub islohotlar, transformatsiya jarayonlarini bosib o‘tdi.

Yoshlar siyosatining umumjahon miqyosidagi talqini BMTning bu boradagi rasmiy hujjatlarida ham aks etgan. Ushbu hujjatlarda yoshlar siyosati tushunchasi birmuncha keng ta‘riflangan: xususan, “yoshlarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan davlat faoliyatining ajralmas qismi bu yoshlar siyosati hisoblanadi”. Jamiyatimizdagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning ijtimoiy ahvoli, qobiliyati va qiziqishlari o‘rganilib, ular 3 toifaga ajratildi. Bunda yaxshi o‘qiyotgan, tadbirkorligini yo‘lga qo‘ygan, rasmiy sektorda ishlaydigan, qobiliyati bor, ijtimoiy faol bo‘lgan 4,4 million yosh “yaxshi” toifaga, turmush taqozosi bilan rasmiy sektordan ish topa olmagan, lekin iqtisodiy faol 4,6 million yosh «o‘rta» toifaga, davlatning

⁴YOSHLAR IJTIMOYILASHUVI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLANISHI Ostonov Oybek Aliqulovich Tarix fanlari dokdori., dotsent. Toshkent davlat agrar universiteti “Gumanitar fanlar va huquq” kafedrasida “YOSHLAR HUQUQLARI: IMKONIYATLAR VA HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024-YIL 26-MART

g‘amxo‘rligi va e‘tiborini kutayotgan hamda ko‘makka muhtoj 396 ming nafar yosh “ahvoli og‘ir» toifaga ajratib olindi.

Haqiqatdan ham, mustaqillik yillarida tug‘ilib, voyaga yetayotgan avlodning ta’lim tarbiyasi davlat va jamiyat uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Zero, jamiyatda kechayotgan siyosiy jarayonlarda mamlakat yoshlarining ongli va mas’uliyatli ishtiroki shu jarayonlarning muvaffaqiyati va pirovard natijasini belgilaydi. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga keng va professional bilim egallashi bilan birga, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilishlari, bugun dunyoda ro‘y berayotgan yangilik va o‘zgarishlardan atroflicha xabardor bo‘lishi, xorijiy tillarni ham chuqur o‘rganishlari uchun barcha zarur sharoitlar yaratib berilgan. Ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarni yurtimizdagi tub o‘zgarishlar, yangilanishlarning asosi desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Zero, har bir yurtning buguni va kelajagi, tom ma’noda, ta’lim tizimining qay darajada rivojlangani, barkamol avlodni tarbiyalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar islohotlarning natijalari bilan belgilanadi.

Xususan, sinov tariqasida 11 yillik majburiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘tish munosabati bilan bo‘shaydigan kollej ustaxonalari negizida yoshlarni, ayniqsa, uyushmagan yoshlarni 6 oygacha bo‘lgan muddatda bepul o‘qitish va kasbga qayta o‘qitish markazlari tashkil etiladi. Endilikda yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviyatini yuksaltirish sohasidagi islohotlarni tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirish strategiyasi belgilab olindi. Voyaga yetmaganlar va yoshlar huquqlarini himoya qilishning qonuniy asoslari yaratilib, zarur institutsional tuzilmalar shakllantirildi. Navbatdagi bosqichda yoshlar muammolarini hal etishga qaratilgan dasturlarni amalga tatbiq qilish, birinchi navbatda, qishloq yigit-qizlarini ish bilan ta’minlash, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishi uchun imkoniyat yaratish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalariga e‘tibor kuchaytirildi.⁵

Yoshlarning ijtimoiylashuvi, huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun o‘zini mas’ul deb bilgan har bir davlat yoshlar hayotiga yoshlarga oid siyosat bilan ta’sir o‘tkazadi. Yoshlarni ijtimoiy to‘g‘ri yo‘naltirish, ularga hayotda o‘z o‘rnini topishlari uchun moddiy va ma’naviy sharoit yaratib berish asnosida davlat va yoshlar o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamlanib boradi va bu, o‘z

⁵YOSHLAR IJTIMOYILASHUVI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLANISHI Ostonov Oybek Aliqulovich Tarix fanlari dokdori., dotsent. Toshkent davlat agrar universiteti “Gumanitar fanlar va huquq” kafedrası “YOSHLAR HUQUQLARI: IMKONIYATLAR VA HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024-YIL 26-MART

navbatida, bevosita yoshlarning huquq va burchlarga rioya qilish mas’uliyatini ham oshiradi.

Yoshlarning subektligi, ijtimoiy faollik, o‘z o‘zini nazorat qilish va boshqarish va mavqeni belgilash bilan tavsiflanuvchi yaxlit ijtimoiy jarayonlarning omili hisoblanadi. Ma’lumki, har qandan huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biri bu fuqarolarning huquqiy madaniyati yuksakligidir. Shunday ekan, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng barcha sohalarni huquqiy tartibga solish yuzasidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, istiqlol yillarida mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risidagi qonun ishlab chiqilib, farzandlarimizning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qalbida erkinlik va mas’uliyat tuyg‘ularini qaror toptirishga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Mamlakatimizda yoshlarni yetuk, keng mushohadali, har jihatdan komil inson qilib tarbiyalashga katta e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Jumladan, bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va bu boradagi me’yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish masalalari asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Bundan yoshlarga huquqiy bilimlar berishning muntazam tizimini yaratish, ularning huquqiy savodxonligiga erishish, yuksak huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish vazifasi ham kelib chiqadi. Mustahkam huquqiy bilim esa, o‘z navbatida, yoshlarning siyosiy-huquqiy faolligi hamda huquqiy ijtimoiylashuvi garovidir.

Ta’kidlash joizki, XX asr o‘rtalaridan boshlanib, XXI asrda keng qamrovli jarayonga aylangan globallashtirish tendensiyalari odamlararo va davlatlararo munosabatlarda ichki tarqoqlik, begonalashuv holatlarini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, odamlarning birlamchi va mustahkam bog‘liqlik bo‘g‘ini bo‘lgan oila instituti, oilada er-xotin, aka-uka, opa singilar, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi an’anaviy mehr-muhabbat, sadoqat, o‘zaro yakdillik muhiti tanazzulga yuz tutdi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari ijtimoiy tarmoqlarida odamlararo mehr-shavqat, bag‘rikenglik, o‘zaro sadoqat tuyg‘ularining susayib ketganligi, yangi avlodning katta avlod turmush tarziga, xususan o‘z ota-onalari amal qilib kelgan odat va an’analariga bepisandligi, ular tomonidan qadrlangan adabiyot, san’at durdonalarini o‘zlashtirmay qo‘yganliklari, ilm-fanga be’tiborligi, tabiatni e’zozlash o‘rniga uni vayron qilishga moyilliklari tahlil etilib, “de-fakto” shakllanib bo‘lgan holatdan chiqishning yagona yo‘li sifatida har bir sohada ijtimoiy bog‘liqlik, odamlararo o‘zaro hamjihatlikni kuchaytirishga yo‘naltirilgan faoliyatlarni amalga oshirish vaziyatni o‘nglashning yagona yo‘li ekanligi qayd etilmoqda.

Ma’lumki, demokratik davlatda yoshlar o‘zining haq-huquqlari va ehtiyojlarini

aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati orqaligina ro‘yobga chiqara oladilar. Demak, yoshlar jamiyatning kelajagini ta‘minlovchi ijtimoiy qatlamga aylanishi uchun bevosita davlatning alohida g‘amxo‘rligiga muhtojdir. Hozirgi kunda eng muhim vazifalardan biri barkamol shaxs tarbiyasi bo‘lgani uchun yosh avlodni ma‘naviy jihatdan tarbiyalash muammosining dolzarbligi va ahamiyati ortib bormoqda. Ma‘naviy barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazish davr talablari asosida yuzaga kelgan, siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotimiz taqdiri bilan uzviy aloqadorlikka bo‘lgan ulug‘vor, mas‘uliyatli, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan vazifa ekanini quyidagicha bayon etish mumkin:

Birinchidan, O‘zbekistonning buyuk davlat bo‘lishini madaniyatli, ma‘naviyatli, yuksak odob-axloqli, o‘z xalqi, millati, Vatanini butun vujudi ila sevib -ardoqlaydigan, ajdodlari yaratgan bebaho ilmu-hunar javohirlarini imkon qadar mukammalroq egallab olgan, butun insoniyatga xos qadriyatlardan bahramand, boxabar bo‘lgan komil insonlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ikkinchidan, fuqarolik jamiyatini barpo etishning eng muhim shartlaridan biri – yangicha, zamonaviy fikrlovchi, imon-e‘tiqodi mustahkam, mustaqillik yillarida shakllangan tafakkur va dunyoqarashga ega bo‘lgan, mustaqillik ma‘naviyati asoslarini mukammal o‘zlashtirib olgan barkamol avlodni, kamolotga erishgan insonlarni shakllantirishdan iboratdir.

Uchinchidan, jamiyatimiz taraqqiyotining poydevori bo‘lgan barkamol avlod va kamolotga yetgan insonlar poraxo‘rlik, o‘g‘rilik, tovlamachilik, firibgarlik, vazifani suiste‘mol qilish kabi yaramas illatlarning oldini olish, ijtimoiy adolat qaror topishini ta‘minlashning muhim va zarur omillaridan bo‘lib hisoblanadi. Barkamol shaxs bo‘lib shakllanish O‘zbekiston ta‘lim tizimi doirasida, uning Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi bosqichi uchun, barkamol shaxs modelini joriy etishning barcha yo‘nalishlarini o‘ziga qamrab olgan tarzda olib borilishini taqozo etadi. Ta‘lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar va yoshlarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali davlatimizning ta‘lim va yoshlarga bo‘lgan e‘tiborining naqadar yuksak ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda albatta jadal islohotlar, ilm-ma‘rifat va innovatsiyalar yetakchi o‘rinda bo‘lishi bugungi globallashuv jarayonida O‘zbekiston yoshlari o‘z fikri, o‘z dunyoqarashi, o‘z bilim salohiyati, eng asosiysi, xalqaro miqyosida o‘z so‘zi va o‘z o‘rniga ega shaxslar bo‘lib voyaga yetmoqda.

Darhaqiqat, bugun bizning asosiy vazifamiz yaratilib berilayotgan ulkan imkoniyatlardan unumli foydalanish hamda vatan taraqqiyoti yo‘lida xizmat qilish

asosiy vazifalaridan biriga aylanishi kerak.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari” Ismailov Berdiyori Rashidovich O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrasida 2 kurs magistiri Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social.
2. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari” Ismailov Berdiyori Rashidovich O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrasida 2 kurs magistiri Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021= 5.423. 254-257 b
3. “Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari” Ismailov Berdiyori Rashidovich O‘ZMU Ijtimoiy ish kafedrasida 2 kurs magistiri Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 2 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021= 5.423. 254-257 b
4. YOSHLAR IJTIMOYILASHUVI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLANISHI Ostonov Oybek Aliqulovich Tarix fanlari doktori., dotsent. Toshkent davlat agrar universiteti “Gumanitar fanlar va huquq” kafedrasida “YOSHLAR HUQUQLARI: IMKONIYATLAR VA HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI” RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024-YIL 26-MART
5. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Т.: Ўзбекистон, 2022. -Б.72
6. Madatovich R. The Role of Civic Responsibility In Educating Youth In A Healthy Spiritual Environment In An Information Society //Pubmedia Social Sciences and Humanities. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 6-6.
7. Ro‘zimurodov S. M., Abdualiov M. S. YOSHLARDA OMMAVIY MADANIYATGA QARSHI MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI //Journal of marketing, business and management. – 2024. – Т. 3. – №. 8. – С. 416-418.
8. Madatovich R. S., Maxamadiyevna S. D. The Role Of The System Of Education And Family Education In Forming Youth's World View //European Journal of Humanities and Educational Advancements. – Т. 4. – №. 4. – С. 128-130.
9. АЗИЗКУЛОВ А. А., РУЗИМУРОДОВ С. М. ФИЛОСОФСКОЕ НАСЛЕДИЕ ИБН СИНЫ В ТРАКТОВКЕ ЗАРУБЕЖНЫХ УЧЕНЫХ //К ЧИТАТЕЛЯМ. – С. 40.



10. Ruzimurodov S. M. Ethnomadonian, Ethnoesthetic Aspects Of The Formation Of A Healthy Lifestyle In Society //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 188-194.

11. Азизкулов А. А., Рuzимуродов С. М. БЫЛ ЛИ АЛЬ-ГАЗАЛИ ИРРАЦИОНАЛИСТОМ-МИСТИКОМ?(ИЛИ РАЦИОНАЛИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД В ТЕОЛОГИИ ИСЛАМА) //ФИЛОСОФИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ. – 2017. – С. 12-17.